

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI ZAMONAVIY
METODLAR ASOSIDA TASHKILLASH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA**

*Jumayeva Unsun Azamatovna
Hamroyeva Marhabo G'afforovna
Navoiy viloyat G'ozg'on shahar
2-maktab boshlang'ich sinf o'qtuvchilari*

Annatatsiya: Ushbu metodik tavsiyada ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil qilishda interfaol metodlarning qo'llanilishi, metod turlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy darslar, interfaol, interfaol metodlar, "Tushunchalar tahlili" metodi, "Svetafor" metodi, "Tartibga soling" metodi.


Ma'lumki, shu paytgacha o'rta ta'lim maktablarida, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan tashkil etildi. O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Eski darsliklar til strukturasini o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinnari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

O'quvchilarni ona tili darsiga qiziqtirish uchun interfaol metodlarning tashkil etilishi, yangi mavzuni mustahkamlash, o'tilgan mavzularni takrorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: 1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida "Tushunchalar tahlili" metodini qo'llashlari mumkin. Bunda o'qituvchi o'tilgan "Tabiat ne'matlari" mavzuni mustahkamlash va takrorlashga ma'lumotlarni eslatib o'tadi. O'quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o'quvchilar uning tahlilini yozishadi. Matn tahlilida qora harflar bilan berilgan so'zlarni tahlil qilishda ham bu metoddan samarali foydalanish mumkin.

Nº	Tushuncha	Tahlil
1.	Oila	Bir ota-onadan tug'ilgan qavm-qarindoshlik birligi
2.	Ota	Oila boshlig'i. Oila ta'minotchisi

3.	Ona	Farzand tarbiyalash, oilani boshqaruvchi mehtibon inson
4	Aka-uka	Oila a'zolari, erkaklar, otaning yordamchilari
5.	Opa-singil	Oila a'zolari, ayollar, onaning yordamchilari


“Svetafor” metodidan ham o'tilgan darsni takrorlash va yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Buning uchun o'qituvchilarga ota-onalar yordamida yumaloq shaklda svetafor chiroqlarini qizil, olovrang va yashil rangda qo'l bilan ushslash uchun qulay holda kartochkalar tayyorlatib olishlarini maslahat bergen bo'lar edim. Bu orqali ular o'quvchilarga savollar berishadi o'quvchilar shovqinsiz o'z fikr-mulohazasidan kelib chiqib, javob berishadi. Savol to'g'ri bo'lsa, yashil rangni, noto'g'ri bo'lsa, qizil rangli kartochkani, agar javobni topa olmasa olovrang kartochkani ko'tarishadi.



“Tartibga soling” metodi. Bu metod davomida aralashib ketgan rasmlarni taartibga solgan holda, ketma-ketligi topib boriladi. Oila a'zolari rasmlaridan ota, ona, aka, opa, singil, uka rasmlari tartib bilan yopishtirilib, oila hosil qilinadi. “Kun tartibi” mavzusiga oid tasmlar ham o'z o'rniga qo'ygan holda ertalab, badan tarbiya, nonushta, maktab, tushlik, uy vazifasi, sayohat, televizor tomosha qilish, kechki ovqat, uxlash uchun yotish bilan yakunlanadi.



“To’g’ri-noto’g’ri” metodidan ham o’tilgan darsni takrorlash yangi mavzuni mustahkamlashda ham foydalanish mumkin. Buning uchun o’qituvchilarga ota-onalar yordamida to’g’ri va noto’g’ri tasviri tushurilgan, qo’l bilan ushslash uchun qulay holda kartochkalar tayyorlatib olishlarini maslahat bergen bo’lar edim. Bu orqali ular o’quvchilarga savollar berishadi o’quvchilar shovqinsiz o’z fikr-mulohazasidan kelib chiqib, javob berishadi. Savol to’g’ri bo’lsa, to’g’ri kartochkasini noto’g’ri bo’lsa, no’to’g’ri kartochkasini ko’tarishadi.



“She’r matnini tiklang” metodi. Bu o’yin mavzudan tashqari shu bilan birga mavzu yuzasidan olib borladigan o’yin hisoblanadi. Bunda o’qituvchi doskaga berilgan she’r matnini yozib, uni ikki qatordan qirqib olib, aralashtirib yuboradi. O’quvchilar tezlikda xotiralaridan kelib chiqib she’r matnini tiklab yopushtirib sinf doskasida ifodali holda aytib berishadi.

Bu metod orqali o’quvchilarni yod olganliklari tekshiriladi. O’quvchilar birlari bilan birgalikda uyushib ishlash qobiliyatlarini shakllanishiga sababchi bo’ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda zamonaviy darslar va interfaol metodlarning ijobiy tomonlari juda ko'p. Uni qo'llash orqali mavzularni, ona tilimizni mukammal o'rganish, o'qish savodxonligini oshirish mumkin. Ona tilimiz boy va betakror, uning har bir qirralari kash qilinmagan ummonga teng. Tilimizni qadrlab, uning har bir qirralarini fanda kashf qilishimiz lozim. "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" ekanligini doimo esda saqlagan holda yurtimizga munosib farzand bo'laylik. Millatimiz ruhi va g'ururi bo'lgan o'zbek tilimizni asrab-avaylaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik \ I.Asimova va boshqalar Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021
2. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent-2017 2.
3. N. Mahmudov, A. Nurmonova va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. Ona tili. 124-126-betlar. Toshkent - 2017
4. Yo'ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.
5. Internet materiallari : <http://go.mail.ru/searchi?.> " Ta'lim texnologiyalari"